ODAM SAVDOSI -GLOBAL MUAMO

Xoldorova Zuhra Faxriddinovna
JDPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotasiya: Maqolada odam savdosi va uning qisqacha tarixi keltirib o‘tilgan va odam savdosining global muammo ekanligi, bu muammoning yechimi va usullari to‘g‘risidagi qonunlar va dunyo mamlakatlarining, xususan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora tadbirlar va unga qarshi kurarshish yo‘llari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Odam savdosi, inson huquqlari, qadr-qimmat, markaziy komissiya, ekspluatatsiya, uy qulligi, bolalar tilanchiligi, zamonaviy qullar.

Annotasiya:В статье упоминается торговля людьми и ее краткая история, а также подчеркивается тот факт, что торговля людьми является глобальной проблемой, законы о решении и методах этой проблемы, а также меры, реализуемые странами мира, особенно в Узбекистане, и способы ее решения.
Ключевые слова: Торговля людьми, права человека, достоинство, центральная комиссия, эксплуатация, домашнее рабство, детское попрошайничество, современные рабы.

Odam savdosi -umumiy obektiga ko‘ra shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan biri bo‘lib, xalqaro uyushgan jinoyatchilikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Odam savdosi, ayniqsa, nihoyatda, serdaromad faoliyat turi sifatida barchani e’tiborini jalb qilmoqda. Unuman olganda odam savdosi global muammo bo‘lib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida millionlab insonlar hayotiga ta’sir ko‘rsatib,ularni insoniy qadr-qimmatidan mahrum qiladi.

Dunyodagi eng xavfli jinoyatlaridan biri sifatida odam savdosi dunyoning barcha burchaklaridan kelgan ayollar, erkaklar va bolalarni aldab qurbon qiladi va ularni har kuni ekspluatatsiya qilishga majbur qiladi. Garchi odam savdosining eng mashhur shakli jinsiy ekspluatatsiya bo‘lsa-da, yuz-minglab qurbonlar majburiy mehnat, uy qulligi, bolalar tilanchiligi yoki organlarni yig‘ish uchun ham sotiladi.

Insoniyat tarixidagi eng mudhish qullik tushunchasi o‘tmishda qolib ketgani yo‘q, hamon turli shak-shamoyillarda davom etmoqda. Endi kimningdir qo‘liga kishan solib, yelkasiga qamchi urush shart emas. Zamonaviy qullar insonlarning o‘z erkiga qarshi jismoniy va ma’naviy mehnatdan foydalangan holda, ularni moddiy manbaga aylantirgan ibtidoiy jamoa davridan farqli ravishda zo‘ravonlik qo‘rqitish va tahdidlar ostida uy xizmatchilari sifatida og‘ir sharoitlarda ishlashga majbur qilinmoqda.

Ayni vaqtda odam savdosi o‘ta xavfli bo‘lib, turli jinoyatlarning sodir etilishiga zamin hozirlaydi. Odam savdosining jinoiy bozori giyohvandlik vositalari va qurol-yarog‘ savdosidan keyin uchinchi o‘rinni egallagani uning nechog‘lik xavfli illat ekanligidan dalolatdir.

Odam savdosi yer yuzi bo‘ylab ko‘plab davlatlarda amalga oshirilmoqda. Odam savdosiga faqatgina O‘zbekiston Respublikasining muammosi sifatida qarashimiz noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki hozirgi kunda odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalib butun dunyo hamjamiyatini havotirga solmoqda. Unga qarshi kurashda na’muna bo‘ladigan davlatni topish qiyin. Odam savdosi AQSHda ham katta muammoga aylangan. “Shunga qaramasdan ushbu balodan qutulish yo‘llari bor. Ko‘plab davlatlar bugun bu muammo ildiziga yeta boshlagan. Zarur qonunlar qabul qilinib tegishli organlar inson savdosiga qarshi kurashni kuchaytirmoqda", -deydi Xillari Klinton.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Odam savdosi global muammo, unga

qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik darkor ". Axir, yoyilib turgan kaftdan tugilib turgan mushtning zarbi kuchli bo‘ladi.

Odam savdosi qurbonlari yiliga oshib bormoqda. Sababi dunyoda migratsiya jarayonlari nihoyatda tezlashgan. Ba’zi bir insonlar qisqa muddatda ko‘p pul topish vasvasasi tufayli firibgarlarning tuzog‘iga aylanmoqda.

Shuning uchun mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida mamlakatimizda o‘z vaqtida kerakli chora tadbirlar ko‘rildi.

Xususan, O‘zbekistonni 2003-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assemblyasi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan, odam savdosi va fohishalilikning uchinchisi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shildi hamda 2008-yilning 17-aprelida "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga ko‘ra, odam savdosi -kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburalsh shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash,hokimiyatni suiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish , topshirish, yashirish, yoki qabul qilishni anglatadi.

Mavjud statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2006-2011-yillarda respublikamizda 5ming nafardan ortiq shaxs odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlardan jabrlangan. Ularning 4ming 197nafarini erkaklar, 1102 nafarini ayollar, 182 nafarini voyaga yetmaganlar tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlarga ko‘ra, bunday jinoyat jabrlanuvchining ayniqsa shahvoniy maqsadlarda ekspluatatsiya qilinayotgan ayollarni aksariyat qismi ya’ni 78 foizini 16-25yoshdagi ayollar tashkil etarkan. Bu ma’lumotlardan kuzatishimiz mumkinki, bugungi kunda odam savdosi ijtimoiy xavfliligi jihatdan kun sayin o‘sib borayotgan jinoyatlardan biri bo‘lib, unga qarshi milliy va xalqaro miqyosda kurashni kuchaytirish bunday qilmishlarni oldini olishda zarur dasturlarni ishlab chiqish hamda mazkur muammoga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash lozimligini davrning o‘zi talab qilmoqda.

Aynan respublikamizda "odam savdosi" deb atalmish global muammoga qarshi kurashish maqsadida bir qator qonunlar qabul qilindi.

Jumladan, Prezidentimiz 2019-yil 30-iyun kuni "Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga doir chora tadbirlar to‘g‘risida" gi imzolagan Farmonni bugun o‘z samarasini bermoqda. Farmon bilan odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi etib qayta tashkil qilindi va uning tarkibi tasdiqlandi.

Shuningdek, "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimlar kiritish haqida"gi Qonun [1], Yangi tahrirdagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonun" [2[, shuningdek, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2008- yil 8-iyulda qabul qilingan, "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish cjora tadbirlari to‘g‘risida"gi [3] qonunlar shular jumlasiga kiradi. Eng achinarlisi odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatchilikning keng quloch yozishiga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari ishsiz yurgan fuqarolar, turmush hayotida ko‘p qiyinchilikka uchragan ayollar va ota-onasining e’tibori va qaramog‘idan chetda qolgan voyaga yetmagan shaxslarning go‘yoki ularning muammolarini hal qilgan kabi ko‘rinib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarda foydalanayotganligi.

Shuni alohida qayd etib o‘tib kerakki, odam savdosiga qarshi kurash borasida aholinnig turli qatlamlari, ayniqsa, ayollar va voyaga yetmagan shaxslarga odam savdosi kabi illatning farovon turmush hayotimizga soladigan xavfli va salbiy oqibatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish, ya’ni aholining gavjum joylarida, mahallalarda turli xil ta’lim muassasalarida, davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilotlarda targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish asosiy vazifalardan biridir. Umuman olganda, bu

jinoyatlarning kelib chiqishiga ma’lum ma’noda odamlarning befarqligi va huquqiy onginig pastligidadir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, xalqimiz, jamoatchiligimiz, bugungi murakkab hayotning talablarini to‘g‘ri tushunib, doimo xushyor, sezgir va ogoh bo‘lib yashashlari lozimdir.

Xulosa qilib aytganda, qonunlarning qabul qilinishi odam savdosidan jabrlangan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishga xizmat qiladi. Butun dunyoning og‘riqli nuqtasi bo‘lmish odam savdosi va majburiy mehnat jinoyatlariga qarshi kurashish uchun avvalo biz metin iroda va sog‘lom aql bilan kurashmog‘imiz zarur.

Taklif o‘rnida esa, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish Milliy komissiyaning buklet, videorolik va ma’lumotlaridan tashqari mobil ilovasini ishlab chiqilsa u orqali fuqarolar kerakli ma’lumotlarni tez va oson olishlariga erishish mumkin bo’lardi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-avgustdagi " Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi 633-sonli Farmoni.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga qarshi kurashish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi Qonunga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritildi imzolagan shakli 2019.06.10.
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi O‘QR -154 son 17-aprel Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan yangi tahrirdagi ilova
4.www.uz.Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Rasmiy veb sayti.
5. w.start.uz. O‘zbekiston Respublikasi Rasmiy veb sayti.
6.www.tashqish. O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligining rasmiy veb sayti.
7.www. un.uz.org.BMT rasmiy veb sayti.
8.www.global.index.rasmiy veb sayti.

WORDLY KNOWLEDGE